JOURNALFLEDU.COM
Foreign Languages in Uzbekistan

Scientific Electronic Journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2026, vol. 12, No 5 (70), pp. 7–24.
https://journalfledu.com
ISSN: 2181-8215 (online)

FUNCTIONAL-SEMANTIC FEATURES OF THE VERB خواستن (xâstan) IN DARI

Alimova Kholida Zikrillaevna

Doctor of Sciences, Professor
Tashkent State University of Oriental Studies
Higher School of Iranian and Afghan Studies
Tashkent, Uzbekistan
xolidaxon66@mail.ru
https://orcid.org/0000-0001-7449-1832
https://doi.org/10.36078/1794209428

(received: August 20, 2026; revised: October 8, 2026; accepted: October 20, 2026)

Abstract. This article examines the functional-semantic properties of the verb **خواستن** (xâstan) in Dari as an independent lexical verb, an auxiliary verb, and a modal verb. The relevance of the study lies in the need for a systematic description of the relationship between the lexical meaning and grammatical functions of this polyfunctional verb, particularly in modal constructions characteristic of Dari. The study aims to distinguish the principal uses of xâstan and identify their morphological, syntactic, and semantic features. Descriptive, functional-semantic, morphosyntactic, and contextual methods are employed. The analysis addresses the lexical meanings of desire, request, and demand, as well as the auxiliary functions associated with tense and probability. Particular attention is given to the structural differences between same-subject and different-subject modal constructions. The study also examines how the placement of negation on the modal or main verb affects the semantic scope of negation. Furthermore, relatively infrequent constructions involving the second conjunctive and imperfect forms are analyzed in relation to the desire for a completed action and counterfactual situations. The scientific contribution of the study consists in systematically relating the functional distinctions of xâstan to subject relations, the scope of negation, and the grammatical form of the main verb. The findings contribute to a more precise understanding of the interaction between lexical and grammatical meanings and the functional-semantic organization of modal constructions in Dari.

Keywords: Dari language; **خواستن** (xâstan); modal verb; auxiliary verb; functional semantics; modal construction; subject relations; negation; probability; second conjunctive; imperfect; counterfactual modality.

DARIY TILIDA خواستن (xâstan) FE'LINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Alimova Xolida Zikrillayevna

filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada dariy tilidagi **خواستن** (xâstan) fe'lining mustaqil leksik birlik, yordamchi va modal fe'l sifatidagi funksional-semantik xususiyatlari tadqiq etiladi. Mazkur fe'lning ko'p vazifaliligi, uning leksik ma'nosi bilan grammatik funksiyalari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash, ayniqsa, dariy tiliga xos modal tuzilmalarni tizimli tavsiflash zarurati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi **خواستن** (xâstan) fe'lining mustaqil, yordamchi va modal qo'llanishlarini farqlash, ularning morfologik-sintaktik tuzilishi hamda semantik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tavsifiy, funksional-semantik, morfologik-sintaktik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Fe'lning mustaqil qo'llanishida xohish, istak, talab va so'rash ma'nolari, yordamchi vazifasida esa zamon va ehtimollik ma'nolarini shakllantirish xususiyatlari ko'rib chiqildi. Bir subyektli va turli subyektli modal tuzilmalarning grammatik tuzilishi hamda subyektlar munosabatiga ko'ra farqlanishi tahlil qilindi. Inkor ko'rsatkichining modal yoki yetakchi fe'lga birikishi natijasida yuzaga keladigan semantik tafovutlar aniqlandi. Shuningdek, o'tgan zamon shart-istak mayli va o'tgan zamon davom fe'li shakllari ishtirokidagi nisbatan kam qo'llanadigan tuzilmalarning tugallangan harakatga yo'naltirilgan istak va voqelikka zid modal mazmunni ifodalash imkoniyatlari yoritildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi **خواستن** (xâstan) fe'lining turli funksiyalarini subyektlar munosabati, inkorning ta'sir doirasi hamda yetakchi fe'lning grammatik shakli bilan o'zaro bog'liqlikda tizimlashtirish orqali asoslab berilgan. Olingan natijalar dariy tilida leksik va grammatik ma'nolarning o'zaro munosabatini hamda modal tuzilmalarning funksional-semantik xususiyatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: dariy tili; **خواستن** (xâstan); modal fe'l; yordamchi fe'l; funksional-semantik xususiyat; modal tuzilma; subyekt munosabati; inkor; ehtimollik; o'tgan zamon shart-istak mayli; o'tgan zamon davom fe'li; voqelikka zid (kontrfaktiv) modallik.

Kirish

Fe'l kategoriyalari tilning grammatik tizimida harakat, holat, jarayon va munosabatlarni ifodalash bilan birga, so'zlovchining voqelikka munosabatini ham belgilaydi. Shu jihatdan modallikni ifodalashda fe'llarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Dariy tilida خواستن *xâstan* fe'li mustaqil leksik ma'nodan yordamchi va modal ma'no ifodalovchi fe'lgacha bo'lgan semantik-grammatik doirani qamrab oladi.

Dariy tilida modal ma’noni shakllantirishda turli vositalar ishtirok etadi. خواستن *xâstan* fe’lining o‘zi esa xohish va istak ma’nosini bildirish bilan birga, muayyan tuzilmalarda kelasi zamon, ehtimollik va baholovchi modallikni ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli uni faqat leksik-semantik yoki faqat morfologik nuqtayi nazardan o‘rganish yetarli emas.

Maqolaning maqsadi dariy tilidagi خواستن *xâstan* fe’lining mustaqil, yordamchi va modal vazifalarini o‘zaro farqlash hamda bu vazifalarni yuzaga chiqaruvchi leksik-semantik, morfologik va sintaktik omillarni aniqlashdan iborat. Shu maqsadda fe’lning mustaqil ma’nolari, analitik zamon-modal shakllardagi ishtiroki, bir va turli subyektli tuzilmalari, inkorning ta’sir doirasi hamda nisbatan kam uchraydigan modal modellari tahlil qilinadi.

Nazariy qism

Dariy tilidagi modal fe’llar B. Y. Ostrovskiy [Островский, 2008] tomonidan maxsus tadqiq etilgan. L. N. Kiselyova [Дорофеева, 1960: 52; Киселева, 1985: 85], T. N. Paxalina [Пахалина, 1964: 58] va R. Farhodiy [Фархади, 1974: 141] asarlarida ham mazkur fe’llarning ayrim grammatik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, X. Z. Alimova [Алимова, 2013: 21–25; 2014: 90–93; 2015: 13–18; Alimova, 2022: 101–107] ilmiy maqolalarida modal tuzilmalarning qo‘llanilishiga doir fikrlar bor. Mazkur tadqiqotlarda ilgari surilgan nazariy qarashlar خواستن *xâstan* fe’lining leksik, yordamchi va modal funksiyalarini farqlashda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi. Shunga qaramay, mazkur fe’lning mustaqil leksik ma’noda qo‘llanishi, yordamchi va modal funksiyalari o‘rtasidagi chegaralarni aniqlashtirish, xususan, modal tuzilmalarda subyektlar munosabati hamda inkorning ta’sir doirasini o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish zarurati mavjud.

Shuni qayd qilish kerakki, modal fe’llar fors tilida ham o‘rganilgan [Пейсиков, 1959: 304–311; Рубинчик, 1960: 82–83; 2001: 236–237, 426–428; Lambton, 1957: 54–57; Lazard, 1957: 135–136, 219–220; Phillott, 1919: 248–253, 259–260, 266–271]. Biroq olingan natijalarni dariy tiliga to‘g‘ridanto‘g‘ri ko‘chirish mumkin emas; dariy tiliga xos og‘zaki shakllar va tuzilmalar alohida tahlilni talab qiladi.

Material va metodologiya

Tadqiqot materialini dariy tilidagi badiiy asarlar hamda og‘zaki nutq namunalaridan ajratib olingan خواستن *xâstan* fe’li ishtirokidagi analitik tuzilmalar tashkil etadi. Tadqiqot doirasida میخواهم بخوانم *mêxâham bexânam,* میخواهی بخوانی *mêxâham bexâni,* خواهد بخوانم *xâhad bexânam* va خواهد خوانده باشم *xâhad xânda bâšam* tipidagi modal tuzilmalarning

struktur-semantik, morfologik va funksional xususiyatlari tahlil qilindi. Misollar olingan manbalarning shartli qisqartmalari maqola oxirida keltirilgan.

Tadqiqotda tavsifiy, funksional-semantik, morfologik-sintaktik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlilning asosiy mezonlari sifatida خواستن *xâstan* fe’lining mustaqil leksik ma’nosi va grammatik vazifalarini farqlash, yetakchi fe’lning zamon-mayl shakllarini aniqlash, modal va asosiy predikatlar subyektlarining o‘zaro munosabatini tavsiflash hamda inkorning ta’sir doirasini belgilash tanlandi. Mazkur mezonlar asosida modal tuzilmalarning grammatik shakllanishi va ular ifodalaydigan modal ma’nolar o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

1. خواستن *xâstan* fe’lining mustaqil leksik qo‘llanishi

Dariy tilida خواستن *xâstan* fe’li mustaqil o‘timli fe’l sifatida, avvalo, xohish-istak ma’nosini ifodalaydi. Mazkur fe’l nutqiy matnga ko‘ra “xohlamoq”, “istamoq”, “talab qilmoq”, “so‘ramoq”, “tilamoq”, “chaqirmoq”, “chaqirtirmoq” va “sovchi yubormoq” kabi leksik-semantik ma’nolarda qo‘llana oladi:

میخواهیم برابری و عدالت ما! *Mâ ‘adâlat-o barâbari mêxâhêm!* [QM] “Biz adolat va tenglikni xohlaymiz (talab qilamiz)!”;

...میخواست زن آنچه اما ،مخصوص سفید سرش بوتلی صرف چند قوطی رنگ و بسته یی بود کاغذ *Ammâ ânče zan mêxâst … serf bôtal-ê sereš-e safêd-e maxsus, čand quti rang wa basta-yê kâğaz bud* [PP] “Lekin ayolga kerak bo‘lgan narsa (*ayn*. ayol xohlagan narsa) … faqat maxsus oq yelimdan bir shisha, bir nechta shisha bo‘yoq va bir bog‘lam qog‘oz edi”;

بچیم، پدرت خیر ترا میخوایه *og‘z. Bačê-m, padar-et xayr-e to-ra mêxâya* [AA] “O‘g‘lim, otang senga yaxshilik tilaydi (*ayn*. yaxshi bo‘lishingni xohlaydi)”;

اینجا بخاطری تر است، که آبروهایش بند است، ترمیم اساسی میخواهد *Injâ ba xâter-ê tar ast, ke âbrawhâ-yaš band ast, tarmim-e asâsi mexâhad* [XN] “Bu yer nam, chunki quvurlari tiqilib qolgan va jiddiy ta’mirlashni talab qiladi”;

خواستم سگرتی زندانی یک از *Az yak zendâni segret-ê xâstam* [BY] “Men bir mahbusdan sigaret so‘radim”;

خواستند پاسپورت نیز من از دیگران همچو آنها *Ânhâ hamčô digarân az man niz pâspôrt xâstand* [BY] “Ular boshqalardan (talab qilganlari) kabi, mendan ham pasport talab qilishdi”;

کنید تقسیم اولادهایم به را آن است که میراثی چیز چند همان ...که خواستم را شما خاطر همین به *Ba hamin xâter šomâ râ xâstam ke… hamân čand čiz-e mirâsi ke ast, ân râ*

ba awlâdhâ-yam taqsim konêd [XN] “Sizni shuning uchun chaqirdimki, ... shu bor merosimni farzandlarimga bo‘lib bersangiz”;

میخواست اش بچه برای که بود بالا قریه پیر چوپان طلبگارش تنها *Tanhâ talabgâr-aš čôpân-e pir-e qarya-ye bâlâ bud ke barâye bačča-aš mêxâst* [HQ] “Birgina sovchisi yuqori qishloqdagi keksa cho‘pon bo‘lib, uni o‘g‘liga so‘rayotgan edi”.

Mustaqil fe’l sifatida خواستن *xâstan* ning leksik ma’nosi kontekst va sintaktik qurshov asosida aniqlanadi. Bunda fe’l o‘zining mustaqil leksik-semantik mazmunini saqlaydi va xohish-istak, talab yoki so‘rash ma’nolarini ifodalovchi predikat vazifasini bajaradi. Yordamchi fe’l vazifasida esa خواستن*xâstan* ning dastlabki leksik ma’nosi zaiflashib, grammatikalashuv jarayoni natijasida yetakchi fe’l orqali ifodalangan harakatning zamon va modal xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Keltirilgan misollar خواستن *xâstan* fe’lining mustaqil qo‘llanishida turli leksik ma’nolarni ifodalashini ko‘rsatadi. Xususan, “xohlamoq” va “istamoq” ma’nolari fe’lning modal vazifasi bilan semantik jihatdan bog‘liq bo‘lsa, “so‘ramoq”, “talab qilmoq” va “chaqirmoq” ma’nolari muayyan kontekstlarda uning mustaqil leksik ma’nolari sifatida voqelanadi.

2. خواستن *xâstan* fe’lining yordamchi fe’l vazifasi

خواستن *xâstan* yordamchi fe’l vazifasida quyidagi to‘rt modal-zamon shakllar tarkibida qo‘llanadi:

1) aniq kelasi zamon:

آخر زن زیبایی مثل نیلو را کدام مردی نادیده خواهد گرفت؟ *Âxer zan-e zêbâ-yê mesl-e Nilô râ kodâm mard-ê nâdida xâhad gereft?* [NA] “Axir, Nilu singari go‘zal ayolni qaysi erkak e’tiborsiz qoldiradi?”;

2) kelasi tugallangan zamon:

آنها قهر کرده خواهند بود! *Ânhâ qahr karda xâhand bud!* “Ular arazlashgan bo‘ladilar!” [Киселева 1985: 93];

3) kelasi zamon gumon fe’li:

تو بسیار لوده استی، ده امی گورستان خات پوسیدی og‘z. *Tu besyâr lawda-sti, da ami gôrestan xât-pôsidi* [PP] “Sen juda ahmoqsan, shu qabristonda chirib ketsang kerak”;

4) o‘tgan zamon gumon fe’li:

تو تا بیایی، کتابارہ آورده خات بودن og‘z. *Tâ tu byâyi, ketâbâ-ra âwarda xât-budan* [Фархади 1974: 132] “Sen kelguningcha, kitoblarni keltirib bo‘lgan bo‘lishsa kerak”.

Ko‘rinadiki, خواستن *xâstan* fe’li yordamchi fe’l vazifasida 1) zamon ma’nosini shakllantiradi, 2) so‘zlovchining ifodalanayotgan fikrga munosabatini − shak-shubha, ehtimollik, noaniqlik, gumon ma’nolarini ifodalash uchun qo‘llanadi.

بخوانم میخواهم *mêxâham bexânam* tipidagi bir subyektli modal tuzilmalar خواستن *xâstan* fe’lining eng mahsuldor modal tuzilmalaridan biridir. Bunda خواستن *xâstan* zamon va shaxs-son shakllaridan birida, yetakchi fe’l hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli (aorist) shaklida keladi. Tuzilmada subyekt ikki fe’l uchun ham umumiy, shu sababli ularni bir subyektli modal tuzilmalar sifatida tavsiflanadi: خواستن *xâstan* modal fe’l vazifasini bajarib, yetakchi fe’ldagi harakatning amalga oshishiga nisbatan subyekt xohishini belgilaydi. Masalan:

کنم روان خواستگاری بابیم کتی مادرمه میخوایم مه og‘z. *Ma mêxâyom mâdar-em-a kat-e babê-m xâstgâri rawân konom* [AA] “Onam bilan birga otamni sovchilikka jo‘natmoqchiman”.

Bunday tuzilmalar ham adabiy, ham og‘zaki nutqda keng qo‘llanadi:

استین کجا از بدانم خواستم og‘z. *Xâstam bedânam az kojâ astên* [AN] “Qayerdan ekanligingizni bilmoqchi edim”;

شود ها گندم خرمن و درو معطل که نمیخواست او *Ô namêxâst ke mo’attal’e daraw-o xerman-e gandomhâ šawad* [HY] “U bug‘doyni o‘rib-yig‘ib olishlarini kutib qolishni istamasdi”.

بخوانی میخواهم *mêxâham bexâni* tipidagi turli subyektli tuzilmalarning asosiy xususiyati خواستن *xâstan* bilan yetakchi fe’l subyektlarining farqlanishidir. Bunda birinchi subyekt xohishning egasi, ikkinchi subyekt esa asosiy harakatning bajaruvchisi hisoblanadi. Masalan:

برگردد زودتر مادرم میخواستم *Mêxâstam mâdar-am zudtar bargardad* [SZ] “Men onam tezroq qaytishini xohlardim”.

Bu yerda میخواستم *mêxâstam* birinchi shaxs xohishini, برگردد *bargardad* esa uchinchi shaxs harakatini ifodalaydi. Shu sababli خواستن xâstan fe’lining shaxs-son shakli yetakchi fe’lning subyekti bilan moslashmaydi. Bu xususiyat mazkur tuzilmaning morfologik-sintaktik tabiatini belgilovchi asosiy belgilardan biridir.

Turli subyektli tuzilmalar xohishning obyekti bilan harakat subyektini ajratish imkonini beradi. Ular bog‘lovchisiz va bog‘lovchili variantlarda kelishi mumkin. Tuzilmaning semantik markazi خواستن *xâstan* bilan ifodalangan xohish bo‘lsa-da, yetakchi fe’l voqeaning mazmuniy yadrosini tashkil etadi.

3. خواستن *xâstan* fe’lining modal-semantik xususiyatlari

خواستن *xâstan* fe’li ishtirokidagi tuzilmalarni semantik jihatdan bir necha guruhga ajratish mumkin.

3.1. Xohish modalligi. Subyekt muayyan harakatning bajarilishini xohlaydi:

بشنوی هم تو میخواهم ،آوریست حیرت قصه *Qessa-ye hayrat’âwar-ê-st, mêxâham to ham bešenawi* [RZ] “Bu ajoyib hikoya, sen ham eshitishingni xohlayman”.

3.2. Maqsad modalligi. Subyekt harakatni amalga oshirish niyatida bo‘ladi:

کنم روان خواستگاری بابیم کتی مادرمه میخوایم مه og‘z. *Ma mêxâyom mâdar-em-a kat-e babê-m xâstgâri rawân konom* [AA] “Onam bilan birga otamni sovchilikka jo‘natmoqchiman”;

اند شده دیوانه دیگران یا و ام شده دیوانه من یا که ببینم و بروم کوچه به خواستم *Xâstam ba kôča berawam-o bebinam ke yâ man dêwâna šoda-am wa yâ digarân dêwâna šoda-and* [QM] “Ko‘chaga chiqib bilmoqchidimki, men devona bo‘ldimmi yoki boshqalar”.

Bu holatda xohish amaliy maqsad bilan birlashadi.

3.3. Ehtimollik (epistemik) modalligi. خواستن *xâstan* fe’li ishtirokidagi modal tuzilmalar xohish-istak va maqsad ma’nolari bilan bir qatorda, ehtimollik va taxminni ham ifodalaydi. Bunday tuzilmalarda fe’lning dastlabki leksik ma’nosi zaiflashib, so‘zlovchining harakat yoki holatning voqelikka mos kelishiga nisbatan taxminiy bahosini ifodalash vazifasi ustunlik qiladi. Mazkur xususiyat, ayniqsa, خواهد *xâhad* va uning og‘zaki nutqqa xos خات *xât* shakli ishtirokidagi tuzilmalarda kuzatiladi.

Ehtimollik bildiruvchi modal tuzilmalar yetakchi fe’lning grammatik shakli va harakatning vaqtga munosabatiga ko‘ra farqlanadi.

Hozirgi-kelasi zamonga oid ehtimollik. خواهد بخوانم *xâhad bexânam* tipidagi tuzilmalarda خواستن*xâstan* fe’li uchinchi shaxs birlik, yetakchi fe’l esa hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli shaklida qo‘llanadi. Modal komponentning shaxs-son shakli o‘zgarmaydi, yetakchi fe’l esa harakat subyektiga mos ravishda tuslanadi. Bunday tuzilmalar harakatning bajarilishi yoki muayyan holatning mavjudligiga nisbatan so‘zlovchining taxminini ifodalaydi.

Og‘zaki nutqda خواهد *xâhad* shaklining qisqargan خات *xât* varianti ham uchraydi:

خات که همه شان مکتب باشن og‘z. *Xât ke ama-šân maktab bâšan* “Ehtimol, ularning hammasi maktabdadir”.

O‘tgan zamonga oid ehtimollik. خواهد خوانده باشم *xâhad xânda bâšam* tipidagi tuzilmalarda خواستن *xâstan* fe’li uchinchi shaxs birlik, yetakchi fe’l esa o‘tgan zamon shart-istak mayli shaklida qo‘llanadi. Mazkur tuzilmalar nutq momentidan oldin sodir bo‘lgan harakatga nisbatan so‘zlovchining taxminini bildiradi. Masalan, خواهد خوانده باشم *xâhad xânda bâšam* “Ehtimol, o‘qiganman”, “O‘qigan bo‘lsam kerak”.

Bunday tuzilmalarda yetakchi fe’lning sifatdosh shakli باشم *bâšam* yordamchi fe’li bilan birikib, o‘tgan zamonga oid harakatni ifodalaydi. خواهد *xâhad* modal komponenti esa mazkur harakatning sodir bo‘lganligiga nisbatan ehtimoliy munosabatni bildiradi.

4. Modal tuzilmalarning morfologik xususiyatlari

Modal tuzilmalarda خواستن *xâstan* turli zamon va mayl shakllarida qo‘llanadi. Yetakchi fe’lning shart-istak mayli shakllari, modal komponentning shaxs-son ko‘rsatkichlari hamda predikatlar o‘rtasidagi sintaktik munosabat tuzilma talqinida muhimdir. Bu xususiyatlar mustaqil leksik qo‘llanishni modal va yordamchi vazifalardan ajratish uchun birgalikda hisobga olinishi lozim.

Tahlil natijalari خواستن *xâstan* fe’lining modal tuzilmalar tarkibida turli zamon-modal shakllarda qo‘llanishini ko‘rsatadi (hozirgi-kelasi zamon, aniq o‘tgan zamon, o‘tgan zamon davom fe’li, uzoq o‘tgan zamon, o‘tgan zamon natijali yoki hikoya fe’li (bilvosita axborot va dalillanganlik ma’nolari uchun), shart-istak mayli shakllari).

Shaxs-son kategoriyasi tuzilma semantikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bir subyektli tuzilmalarda خواستن *xâstan* va yetakchi fe’l subyekti umumiy bo‘lsa, turli subyektli tuzilmalarda ular farqlanadi. Natijada shaxs-son shakllari xohish egasi va harakat bajaruvchisini ajratishga xizmat qiladi.

خواستن *xâstan* ning og‘zaki nutqda خات *xât* shakliga qisqarishi ham uning funktsional jihatdan faolligini ko‘rsatadi. Bunday shakl, ayniqsa, ehtimollik va baholovchi modallikni ifodalovchi tuzilmalarda kuzatiladi.

5. Inkor shakllari va ularning grammatik-semantik xususiyatlari

Dariy tilida خواستن *xâstan* “xohlamoq”, “istamoq”, “-moqchi bo‘lmoq” modal fe’li ishtirokidagi tuzilmalarning muhim grammatik-semantik xususiyatlaridan biri inkor shaklining qo‘llanishi va uning modal mazmunga ta’siri bilan belgilanadi. Mazkur fe’lning bo‘lishsiz shakli subyektning muayyan ish-harakatni amalga oshirishga bo‘lgan istagi yoki niyatining mavjud emasligini ifodalaydi. Biroq modal tuzilma tarkibida inkor ko‘rsatkichining qaysi komponentga birikishi gapning semantik talqinida muayyan farqlarni yuzaga keltiradi.

خواستن *xâstan* fe’li qatnashgan bir subyektli va turli subyektli modal tuzilmalarda inkor ko‘rsatkichi modal fe’lga yoki yetakchi fe’lga birikishi mumkin. Birinchi holatda inkor subyektning istak-xohishiga, ikkinchi holatda esa istakning obyekti bo‘lgan ish-harakatga qaratiladi. Bu jihatdan modal fe’lning inkor shakli bilan yetakchi fe’lning inkor shakli semantik jihatdan o‘zaro farqlanadi.

Bir subyektli modal tuzilmalarda inkorning modal komponent orqali ifodalanishi quyidagi misolda kuzatiladi:

بدهم زحمت را شما نمیخواستم *Namêxâstam šomâ râ zahmat bedeham* [PP] “Sizni bezovta qilishni xohlamagandim”.

Mazkur gapda نمیخواستم *namêxâstam* modal fe’li inkor shaklida, بدهم زحمت *zahmat bedeham* yetakchi fe’li esa hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli (aorist)ning bo‘lishli shaklida qo‘llangan. Inkor ko‘rsatkichi modal komponentga birikib, subyektning muayyan harakatni bajarishga nisbatan istagi mavjud emasligini bildiradi. Demak, inkor bevosita harakatning o‘ziga emas, balki ushbu harakatga qaratilgan modal munosabatga tegishlidir.

Bundan farqli ravishda, modal fe’l bo‘lishli, yetakchi fe’l esa inkor shaklida qo‘llanganda, subyekt muayyan harakatning amalga oshmasligini istashi ifodalanadi:

نیندیشم چیزی به دیگر که میخواهم *Mêxâham ke digar ba čiz-ê nayandešam* [XN] “Boshqa hech narsa haqida o‘ylamaslikni xohlayman”.

Keltirilgan misolda subyektning istagi inkor qilinmaydi, aksincha, uning istagi harakatning bajarilmasligiga qaratiladi. Shunday qilib, modal fe’lning inkor shakli istakning mavjud emasligini, yetakchi fe’lning inkor shakli esa harakatni bajarmaslik istagini bildiradi.

Dariy tilida mazkur ikki grammatik model ayrim kontekstlarda bir-biriga yaqin kommunikativ mazmunni ifodalashi mumkin. Masalan:

بتم دست از تره نمیخوایم مه *Ma namêxâyom to-râ az dest betom* [AA] “Men seni yo‘qotishni xohlamayman”;

نتم دست از تره میخوایم مه *Ma mêxâyom to-râ az dest natom* “Men seni yo‘qotmaslikni xohlayman”.

Birinchi gapda inkor ko‘rsatkichi نمیخوایم *namêxâyom* modal fe’liga birikib, yo‘qotish harakatiga nisbatan istakning inkorini bildiradi. Ikkinchi gapda esa میخوایم *mêxâyom* bo‘lishli shaklda kelib, inkor ko‘rsatkichi نتم *natom* yetakchi fe’liga birikadi va subyektning yo‘qotmaslikka qaratilgan ijobiy istagini ifodalaydi.

Har ikkala tuzilma umumiy kommunikativ maqsad jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ularning mantiqiy-semantik tuzilishi aynan bir xil emas. Birinchi holatda “yo‘qotishni istamaslik”, ikkinchi holatda esa “yo‘qotmaslikni istash” mazmuni yetakchilik qiladi. Binobarin, inkor ko‘rsatkichining modal komponentdan yetakchi komponentga yoki aksincha ko‘chishi natijasida inkorning ta’sir doirasi o‘zgaradi. Bunday hodisani modal tuzilmalarda inkor ko‘rsatkichining funksional-semantik qayta taqsimlanishi sifatida izohlash mumkin.

خواستن *xâstan* fe’li ishtirokidagi turli subyektli modal tuzilmalarda ham inkorning qo‘llanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday tuzilmalarda modal fe’l ifodalagan istak subyekti bilan yetakchi fe’l bildirgan harakat subyekti o‘zaro farqlanadi. Shunga ko‘ra, inkor ko‘rsatkichining joylashuvi nafaqat modal munosabatni, balki subyektlar o‘rtasidagi semantik aloqani ham aniqlashtiradi. Masalan:

کنید دعوا هم با دایم شما که نمیخواییم ما *Mâ namêxâyêm ke šomâ dâyem bâ ham dawâ konêd* [AA] “Biz sizlarning doimo o‘zaro janjallashishingizni xohlamaymiz”.

Mazkur misolda نمیخواییم *namêxâyêm* modal fe’lining inkor shakli birinchi shaxs ko‘plikdagi istak subyektiga tegishli bo‘lib, yetakchi fe’l ifodalagan harakat esa ikkinchi shaxs ko‘plikdagi subyekt tomonidan bajarilishi nazarda tutiladi. Inkor istak subyektining boshqa subyekt tomonidan amalga oshiriladigan harakatga salbiy munosabatini ifodalaydi.

Turli subyektli tuzilmalarda ham inkorning modal yoki yetakchi fe’l orqali ifodalanishi mazmunan yaqin, biroq grammatik-semantik jihatdan farqli modellarni yuzaga keltiradi:

نگیرد غرض من اتاق کارهای در او که میخواهم *Mêxâham ke ô dar kârhâ-ye otâq-e man ğaraz nagirad* “Men uning xonamdagi ishlarga aralashmasligini xohlayman”;

بگیرد غرض من اتاق کارهای در او که نمیخواهم *Namêxâham ke ô dar kârhâ-ye otâq-e man ğaraz begirad* [PP] “Men uning xonamdagi ishlarga aralashishini xohlamayman”.

Birinchi misolda inkor ko‘rsatkichi yetakchi fe’lga birikib, boshqa subyekt tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lgan harakatning amalga oshmasligiga qaratilgan istakni ifodalaydi. Ikkinchi misolda esa inkor modal fe’lga birikib, ayni harakatning bajarilishiga nisbatan istakning mavjud emasligini bildiradi. Har ikkala tuzilma nutqiy vaziyatda o‘xshash maqsadga xizmat qilsa-da, inkorning semantik qamrovi jihatidan farqlanadi.

Ko‘rinadiki, خواستن *xâstan* modal fe’li ishtirokidagi tuzilmalarda inkor ko‘rsatkichining joylashuvi modal munosabatning semantik talqinini

belgilovchi muhim grammatik omillardan biridir. Inkor modal fe’lga birikkanda subyektning harakatga nisbatan istagi inkor qilinadi, yetakchi fe’lga birikkanda esa istak saqlangan holda harakatning amalga oshmasligi maqsad qilib qo‘yiladi.

Shuningdek, bir subyektli va turli subyektli tuzilmalarda inkor ko‘rsatkichining modal va yetakchi komponentlar o‘rtasida almashinishi ayrim kontekstlarda mazmuniy yaqinlikni yuzaga keltiradi. Biroq bu yaqinlik mazkur grammatik modellarni to‘liq sinonimik deb baholash uchun asos bo‘la olmaydi. Chunki ularning birida istakning inkori, ikkinchisida esa inkor mazmunli harakatga qaratilgan istak ifodalanadi.

Demak, dariy tilida خواستن *xâstan* fe’li ishtirokidagi modal tuzilmalarda inkor faqat bo‘lishsizlikni ifodalovchi morfologik vosita emas, balki modal ma’noning xususiyati, inkorning ta’sir doirasi hamda subyektning harakatga munosabatini belgilashda muhim grammatik-semantik omil vazifasini bajaradi.

6. Kam uchraydigan modal tuzilmalar

خواستن *xâstan* ishtirokida kam qo‘llanadigan maxsus shakllar ham mavjud. Materiallarimiz tahlilida bular bir subyektli va turli subyektli *tugallangan harakatga yo‘nalgan istakni ifodalovchi (temporal) modal tuzilmalar* hamda *voqelikka zid istakni ifodalovchi (kontrafaktiv) modal tuzilmalar* sifatida tavsiflandi. Ularning farqli xususiyati shundaki, yetakchi fe’lning grammatik shakli subyekt istagining mazmuni bilan bir qatorda, harakatning vaqtga munosabati va voqelikda amalga oshish imkoniyatini ham ifodalaydi.

Tugallangan harakatga yo‘nalgan istakni ifodalovchi modal tuzilmalar خواستن *xâstan* modal fe’lining muayyan shaxs-son va zamon shakli hamda yetakchi fe’lning o‘tgan zamon shart-istak mayli shakli orqali hosil qilinadi. Masalan:

میخواهم خوانده باشم *Mêxâham xânda bâšam* “O‘qib bo‘lishni xohlayman”;

میخواهم خوانده باشی *Mêxâham xânda bâši* “O‘qib bo‘lishingni xohlayman”.

Birinchi tuzilmada modal fe’l va yetakchi fe’lning subyekti bir shaxsga tegishli bo‘lsa, ikkinchi tuzilmada istak subyekti bilan harakat subyekti o‘zaro farqlanadi. Har ikkala holatda yetakchi fe’lning o‘tgan zamon shart-istak mayli shaklida qo‘llanishi harakatning muayyan vaqt chegarasiga qadar yakunlangan bo‘lishi haqidagi istakni ifodalaydi.

Bunday tuzilmalarning o‘ziga xos jihati modal istakning nutq vaziyatiga nisbatan hozirgi yoki o‘tgan zamonda ifodalanishi bilan asosiy harakatning yakunlanish nuqtasi o‘rtasidagi vaqt munosabatida ko‘rinadi. Ya’ni subyekt

harakatning bajarilish jarayoniga emas, balki muayyan vaqtga kelib tugallangan natijasiga yo‘naltirilgan istakni bildiradi. Masalan:

باشم کرده سپاسگذاری گلنار از خواستم *Xâstam az Golnâr sepâsgozâri karda bâšam* [RZ] “Men Gulnorga tashakkur aytmoqchi edim”.

Mazkur misolda خواستم *xâstam* modal fe’li aniq o‘tgan zamonda, سپاسگذاری باشم کرده *sepâsgozâri karda bâšam* yetakchi fe’li esa o‘tgan zamon shart-istak mayli shaklida qo‘llangan. Tuzilmaning semantik markazini minnatdorlik bildirishga qaratilgan istak tashkil etadi. Yetakchi fe’lning murakkab shakli esa harakatning yakunlangan natijasini modal mazmun doirasida ifodalashga xizmat qiladi.

Turli subyektli tugallangan harakatga yo‘nalgan istakni ifodalovchi modal tuzilmaga quyidagi misolni keltirish mumkin:

باشند دیده را یکدیگر عروسی از قبل ،شده که هم بار یک برای الاقل آنها تا خواسته چنان پری *Pari čonin xâsta tâ ânhâ lâ’aqall barâye yak bâr ham ke šoda, qabl az ‘arôsi yakdigar râ dida bâšand* [MT] “Pari ular to‘ydan oldin loaqal bir marta bo‘lsa ham bir-birlarini ko‘rishlarini xohlagan”.

Mazkur tuzilmada istak subyekti *Pari* bo‘lsa, asosiy harakatning bajaruvchilari boshqa shaxslardir. Modal komponent خواسته *xâsta* orqali istak ifodalangan, باشند دیده *dida bâšand* shakli esa ko‘rishish harakatining to‘ydan oldin amalga oshgan bo‘lishi nazarda tutilganini bildiradi. از قبل عروسی *qabl az ‘arôsi* “to‘ydan oldin” birikmasi harakatning yakunlanishi lozim bo‘lgan vaqt chegarasini aniqlashtiradi.

Demak, tugallangan harakatga yo‘nalgan istakni ifodalovchi modal tuzilmalarda istak va harakatning vaqt munosabati asosiy grammatik-semantik belgi hisoblanadi. Bunda o‘tgan zamon shart-istak mayli shakli istakning muayyan vaqtga qadar yakunlangan holatga qaratilganligini ifodalashda muhim vazifa bajaradi.

Voqelikka zid istakni ifodalovchi modal tuzilmalar yetakchi fe’lning o‘tgan zamon davom fe’li shaklida kelishi bilan xarakterlanadi. Bunday tuzilmalar subyektning real voqelikda mavjud bo‘lmagan yoki amalga oshishi mumkin bo‘lmagan vaziyatga nisbatan istagini ifodalaydi. Masalan:

میخواهم میخواندم *Mêxâham mêxândam* “O‘qishni xohlayman (*ammo buning imkoni yo‘q*)”;

میخواهم میخوانی *Mêxâham mêxândi* “Sening o‘qishingni xohlayman (*ammo buning imkoni yo‘q*)”.

Birinchi model bir subyektli, ikkinchisi esa turli subyektli voqelikka zid istakni ifodalovchi modal tuzilma hisoblanadi. Ularning umumiy semantik xususiyati istak mazmunining real vaziyatga zidligi bilan belgilanadi.

میداشتم یاد سواد که میخواهم *Mêxâham ke sawâd yâd mêdâštam* “Men savodli bo‘lishni xohlayman (ammo aslida savodim yo‘q)”.

Keltirilgan misolda subyektning mavjud voqelikdan qoniqmasligi va unga zid bo‘lgan holatni istashi ifodalangan. Bunda savodli bo‘lish istagi real holat bilan qarama-qarshi qo‘yilmoqda. Shunday qilib, o‘tgan zamon davom fe’li shakli faqat o‘tgan zamon mazmunini emas, balki voqelikka zid modallikni yuzaga chiqaruvchi grammatik vosita vazifasini ham bajaradi.

میبود محکمتر اتاق کف میخواست *Mêxâst kaf-e otâq mahkamtar mêbud* [MT] “U xonaning poli mustahkamroq bo‘lishini xohlardi (*ammo aslida yetarlicha mustahkam emas*)”.

Mazkur tuzilmada میخواست *mêxâst* modal fe’li o‘tgan zamon davom fe’li shaklida qo‘llanib, subyektning istagini ifodalaydi. Asosiy predikativ qismdagi میبود *mêbud* shakli esa mavjud holatga zid bo‘lgan tasavvurni bildiradi. Xona polining mustahkamroq bo‘lishi subyekt tomonidan istalgan holat sifatida tasvirlangan bo‘lsa-da, kontekstdan uning real voqelikda mavjud emasligi anglashiladi.

Tugallangan harakatga yo‘nalgan istak va voqelikka zid istakni ifodalovchi modal tuzilmalar o‘rtasida muhim grammatik-semantik farqlar mavjud. Tugallangan harakatga yo‘nalgan istakni ifodalovchi modal tuzilmalarda yetakchi fe’l o‘tgan zamon shart-istak mayli shaklida kelib, istakning harakat yakunlangan bo‘lishiga qaratilganligini bildiradi. Voqelikka zid istakni ifodalovchi (kontrafaktiv) modal tuzilmalarda esa yetakchi fe’l o‘tgan zamon davom fe’li shaklida qo‘llanib, istalgan vaziyatning real holatga zidligini ifodalaydi. Birinchisida istakning vaqt chegarasi va harakatning natijaviyligi, ikkinchisida esa istak bilan real voqelik o‘rtasidagi nomuvofiqlik yetakchi o‘rin tutadi.

خواستن *xâstan* fe’li ishtirokidagi kam qo‘llaniladigan modal tuzilmalarning grammatik-semantik o‘ziga xosligi modal komponent bilan yetakchi fe’lning shakl va mazmun munosabatida ko‘rinadi: o‘tgan zamon shart-istak mayli shakli tugallangan harakatga yo‘nalgan istakni, o‘tgan zamon davom fe’li shakli esa voqelikka zid modal mazmunni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa dariy tilida modal tuzilmalarning semantik tasnifida nafaqat modal fe’lning leksik ma’nosi, balki yetakchi fe’lning grammatik shakli ham muhim farqlovchi mezon ekanligini ko‘rsatadi.

Natijalar muhokamasi

Tahlillar خواستن *xâstan* fe’lining mustaqil leksik, yordamchi va modal vazifalarini farqlash mumkinligini ko‘rsatdi. Mustaqil qo‘llanishda istak, so‘rash va talab ma’nolari bevosita ifodalansa, analitik zamon shakllarida

fe’lning grammatik vazifasi ustunlashadi. Modal tuzilmalarda esa subyektning harakatga munosabati yoki voqelik haqidagi ehtimoliy baho yuzaga chiqadi.

Bir subyektli بخوانم میخواهم *mêxâham bexânam* modelida istak egasi va asosiy harakat bajaruvchisi bir shaxsga to‘g‘ri keladi. Turli subyektli بخوانی میخواهم *mêxâham bexâni* modelida ular farqlanadi. Bu qarama-qarshilik faqat shaxs-son mosligi bilan emas, balki istakning kimga va qaysi harakatga qaratilgani bilan ham belgilanadi.

Inkorning modal komponentga birikishi istakning mavjud emasligini, yetakchi fe’lga birikishi esa harakatning amalga oshmasligiga qaratilgan istakni bildiradi. Nisbatan kam uchraydigan modellarda o‘tgan zamon shart-istak mayli va o‘tgan zamon davom fe’li shakllari harakatning natijaviyligi, vaqt munosabati hamda voqelikka zid talqinning yuzaga chiqishida qatnashadi. Ushbu semantik qiymatlar kontekst bilan birga izohlanishi lozim.

Xulosa

Dariy tilidagi خواستن *xâstan* fe’lining funksional-semantik xususiyatlarini tahlil qilish quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi.

1. خواستن *xâstan* fe’li mustaqil leksik, yordamchi va modal vazifalarda qo‘llanadi; ularni farqlashda leksik ma’noning saqlanish darajasi, yetakchi fe’l shakli va sintaktik munosabatlar muhim.

2. Mustaqil qo‘llanishda “xohlamoq”, “istamoq”, “so‘ramoq”, “talab qilmoq” kabi ma’nolar nutqiy matn asosida belgilanadi. Ularning barchasini bir xil modal vazifa deb baholash to‘g‘ri emas.

3. Yordamchi vazifada خواستن *xâstan* analitik zamon-modal shakllarning komponenti bo‘lib, dastlabki leksik ma’nosi zaiflashadi. Bunda zamon qiymati bilan ehtimollik qiymatini ajratib ko‘rsatish zarur.

4. Modal tuzilmalarda خواستن *xâstan* istak va niyatni ifodalaydi; bu ma’nolarning konkret talqini yetakchi fe’l va kontekstga bog‘liq.

5. Bir subyektli va turli subyektli modellarda istak egasi hamda harakat bajaruvchisining mosligi yoki farqlanishi tuzilmaning muhim morfologik-sintaktik belgisi hisoblanadi.

6. بخوانم خواهد *xâhad bexânam* va خواهد خوانده باشم *xâhad xânda bâšam* tipidagi modal tuzilmalarda ehtimoliy talqin shakllanadi. Buni aniqlashda nutqiy kontekst va yetakchi fe’lning grammatik shakli hisobga olinadi.

7. Inkor modal fe’l yoki yetakchi fe’lga birikishiga ko‘ra semantik ta’sir doirasini o‘zgartiradi: istakning inkori va harakatning bajarilmasligiga qaratilgan istak farqlanadi.

8. O‘tgan zamon shart-istak mayli va o‘tgan zamon davom fe’li qatnashgan nisbatan kam uchraydigan tuzilmalar tugallangan natijaga yo‘nalgan hamda voqelikka zid istakni ifodalashda qatnashadi. Ularning ma’nosi faqat shaklga emas, kontekstga ham bog‘liq.

Shunday qilib, خواستن *xâstan* fe’lining funksional-semantik ko‘p vazifaliligi leksik va grammatik ma’nolarning o‘zaro ta’sirida yuzaga chiqadi. Keltirilgan misollar sinxron funksional farqlarni ko‘rsatadi; tarixiy grammatikalashuv bosqichlarini belgilash esa alohida diaxron tadqiqotni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Alimova X. Dariy tilidagi modal tuzilmalarning o‘zbek tiliga tarjimasi xususida (میتوانم خوانده*xânda mêtawânam* tipi misolida) // Tarjimashunoslar forumi – 2022: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. — 1-kitob. — Toshkent: TDSHU, 2022. — B. 101–107. — URL: https://cyberleninka.ru/journal/n/oriental-renaissance-innovative-educational-natural-and-social-sciences?i=1116055.

Lambton A. K. S. Persian Grammar. — Cambridge, 1957. — P. 54–57.

Lazard G. Grammaire du persan contemporain. — Paris, 1957. — P. 135–136.

Phillott D. C. Higher Persian Grammar. — Calcutta, 1919. — P. 248–253, 259–260, 266–271.

Алимова Х. Бир ва турли субъектли модал тузилмаларнинг ўзаро муносабати ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. — Тошкент: ТДШИ, 2013. — Б. 21–25.

Алимова Х. Дарий тилидаги тескари модал тузилмалар ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. — Тошкент: ТДШИ, 2014. — Б. 90–93.

Алимова Х. Дарий тилида میتوانم خوانده*xânda mêtawânam* типидаги модал тузилмалар // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. — Тошкент: ТДШИ, 2015. — Б. 13–18.

Дорофеева Л. Н. Язык фарси-кабули. — Москва: Изд-во восточной литературы, 1960. — 84 с.

Киселева Л. Н. Язык дари Афганистана. — Москва: Наука, 1985. — 128 с.

Островский Б. Я. Модальные глаголы языка дари. — Москва: Ключ-С, 2008. — 196 с.

Пахалина Т. Н. К характеристике кабульского просторечия // Индийская и иранская филология. Вопросы диалектологии. — Москва, 1964. — С. 30–58.

Пейсиков Л. С. Вопросы синтаксиса персидского языка. — Москва: Изд-во ИМО, 1959. — 411 с.

Рубинчик Ю. А. Современный персидский язык. — Москва: Изд-во восточной литературы, 1960. — 140 с.

Рубинчик Ю. А. Грамматика современного персидского литературного языка. — Москва: Восточная литература РАН, 2001. — 600 с.

Фархади Раван. Разговорный фарси в Афганистане. — Москва: Наука, 1974. — 214 с.

محمد نسیم نگهت سعیدی. دستور معاصر زبان دری. — کابل: انتشارات امیری، ۱۳۹۲. — ص ۲۵۶.

References

Alimova, X. (2013). Bir va turli subyektli modal tuzilmalarning o‘zaro munosabati haqida mulohazalar [Reflections on the relationship between modal constructions with the same and different subjects]. In *O‘zbek sharqshunosligi: Buguni va ertasi* [Uzbek Oriental studies: Today and tomorrow] (pp. 21–25). TDSHI.

Alimova, X. (2014). Dariy tilidagi teskari modal tuzilmalar haqida mulohazalar [Reflections on inverted modal constructions in Dari]. In *O‘zbek sharqshunosligi: Buguni va ertasi* [Uzbek Oriental studies: Today and tomorrow] (pp. 90–93). TDSHI.

Alimova, X. (2015). Dariy tilida *xânda mêtawânam* tipidagi modal tuzilmalar [Modal constructions of the *xânda mêtawânam* type in Dari]. In *O‘zbek sharqshunosligi: Buguni va ertasi* [Uzbek Oriental studies: Today and tomorrow] (pp. 13–18). TDSHI.

Alimova, X. (2022). Dariy tilidagi modal tuzilmalarning o‘zbek tiliga tarjimasi xususida (*xânda mêtawânam* tipi misolida) [On translating Dari modal constructions into Uzbek, illustrated by the *xânda mêtawânam* type]. In *Tarjimashunoslar forumi – 2022* [Translators’ forum 2022] (Vol. 1, pp. 101–107). TDSHU. https://cyberleninka.ru/journal/n/oriental-renaissance-innovative-educational-natural-and-social-sciences?i=1116055

Dorofeeva, L. N. (1960). *Yazyk farsi-kabuli* [The Farsi-Kabuli language]. Izdatel’stvo vostochnoi literatury.

Farkhadi, R. (1974). *Razgovornyi farsi v Afganistane* [Colloquial Persian in Afghanistan]. Nauka.

Kiseleva, L. N. (1985). *Yazyk dari Afganistana* [The Dari language of Afghanistan]. Nauka.

Lambton, A. K. S. (1957). *Persian grammar*.

Lazard, G. (1957). *Grammaire du persan contemporain* [Grammar of contemporary Persian].

Nighat Saeedi, M. N. (1392). *Contemporary grammar of the Dari language*. Amiri Publications. (In Dari.)

Ostrovskii, B. Y. (2008). *Modal'nye glagoly yazyka dari* [Modal verbs in Dari]. Klyuch-S.

Pakhalina, T. N. (1964). K kharakteristike kabul'skogo prostorechiya [On the characteristics of Kabul vernacular speech]. In *Indiiskaya i iranskaya filologiya. Voprosy dialektologii* [Indian and Iranian philology: Issues in dialectology] (pp. 30–58).

Peisikov, L. S. (1959). *Voprosy sintaksisa persidskogo yazyka* [Issues in Persian syntax]. Izdatel'stvo IMO.

Phillott, D. C. (1919). *Higher Persian grammar*.

Rubinchik, Y. A. (1960). *Sovremennyi persidskii yazyk* [Modern Persian]. Izdatel'stvo vostochnoi literatury.

Rubinchik, Y. A. (2001). *Grammatika sovremennogo persidskogo literaturnogo yazyka* [Grammar of the modern Persian literary language]. Vostochnaya literatura RAN.

Illyustrativ material mualliflari

AA	–	عزیزآلله علیزاده	*'Azizollâh 'Alizâda*	Azizullo Alizoda
AN	–	عزیزآلله نهفته	*'Azizollâh Nohofta*	Azizullo No'ho'fta
BY	–	بصیر یقین	*Basir Yaqin*	Basir Yaqin
HQ	–	هاشم قیام	*Hâšem Qeyâm*	Hoshim Qiyom
HY	–	غلام حیدر یگانه	*Ğolâm-Haydar Yagâna*	G'ulom-Haydar Yagona
MT	–	مهسا طایع	*Mahsâ Tâye'*	Mahso Toye'
NA	–	محمد نبی عظیمی	*Mohammad-Nabi 'Azimi*	Muhammad Nabi Azimiy
PP	–	پروین پژواک	*Parwin Pažwâk*	Parvin Pajvok

QM	–	قادر مرادی	*Qâder Morâdi*	Qodir Murodiy
RZ	–	رهنورد زریاب	*Rahnaward Zaryâb*	Rahnavard Zaryob
SZ	–	سپوژمی زریاب	*Sopožmay Zaryâb*	Spujmay Zaryob
XN	–	خالد نویسا	*Xâled Nawisâ*	Xolid Naviso